

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



**INSON FALSAFASI**  
fanining o'quv dasturi

**Bilim sohasi:** 100000 – Ta'lim

**Ta'lim sohasi:** 110000 – Ta'lim

**Magistratura mutaxassisligi:** 70112101 -Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari)

**JIZZAX – 2022**

**JIZZAX – 2022**

<b>Фан/модуль коди</b> (Magistratura)		<b>О‘quv yili</b> 2022-2023	<b>Semestr</b> 2	<b>ECTS - Kreditlar</b> 4
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy fan			<b>Ta’lim tili</b> O‘ZBEK	<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4
<b>1</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg‘ulotlari</b> (soat)	<b>Mustaqil ta’lim</b> (soat)	<b>Jami yuklama</b> (soat)
	<b>Inson falsafasi</b>	60 Ma’ruza - 30 Seminar - 30	60	120
<b>2</b>	<p align="center"><b>I. Faning mazmuni</b></p> <p><b>Fanni o‘qitishdan maqsad</b> – “Inson haqidagi falsafiy bilimlarini mukammallashtirishдан иборат</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – Ushbu fanning asosiy vazifalari quyidagilar deb belgilab olindi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- • insonning tub mohiyatini tushunish, uning imkoniyat va qobiliyatini kengaytirish maqsadida olib borilayotgan ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar; <ul style="list-style-type: none"> <li>- falsafa tarixida inson muammosi;</li> <li>- insondagi tabiiylik bilan ijtimoiylik orasidagi aloqadorlik mexanizmini, madaniyat, siyosat, sivilizatsiya, bilish kabi masalalar inson manfaatlari va insoniy mohiyatning namoyon bo‘lish;</li> <li>- inson ma’naviy borlig‘i: barqarorlik va beqarorlik dialektikasi, inson taraqqiyoti va barqaror rivojlanishi haqida <i>tasavvur va bilimga ega bo‘lishi</i>;</li> <li>- muomala madaniyati, aqliy zukkolik, axloqiy madaniyat, mehnatga halol munosabat va siyosiy madaniyat, hayot to‘siqlarini yengish qobiliyati, qat’iyat va intizom; shaxsiy tashabbus va kreativlik; fundamental bilimlarga egalik, uch va undan ortiq xorijiy tilni bilish; ilm-fandagi eng so‘ngi yangiliklardan xabardorlik va pragmatiklik; zamonaviy informatsion texnologiyalarni bilish yuqoriligi; nostandart holatlarda eng to‘g‘ri, maqbul yechim topa bilish va kasbiy mahorat; o‘ziga o‘zi hisob berish ko‘nikmasi va tanqidiy fikrlash <i>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi</i>;</li> </ul> </li> <li>- kasbiy faoliyatda fanning metodologik ahamiyati, global jarayonlarda inson hodisasini analitik va sintetik, mantiqiy, axloqiy, estetik va diniy tafakkur qilish <i>malakasiga ega bo‘lishi kerak.</i></li> </ul> <p align="center"><b>ASOSIY NAZARIY QISM (MA’RUZA MASHG‘ULOTLARI)</b></p> <p align="center"><b>«INSON FALSAFASI» FANINING NAZARIY ASOSLARI</b></p> <p align="center"><b>“Inson falsafasi” fanining predmeti va vazifalari</b></p> <p>Inson falsafaning tadqiqot predmeti sifatida, uning dolzarbligi va o‘ziga xos xususiyatlari. Falsafadan bahs yuritiladigan barcha masalalar inson muammosiga bevosita daxldorligi.</p>			

Inson falsafasining ob'ekti-inson haqida olib borilgan tadqiqotlar, falsafiy fikrlar taraqqiyoti. Insonning tub mohiyatini tushunish, uning imkoniyat va qobiliyatini kengaytirish maqsadida olib borilayotgan ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar.

Hozirgi globallashuv sharoitida inson ma'naviyati muammosining dolzarbligi. Insonning ma'naviy olamini tubdan o'zgarishtirishga qodir kuchlarning mavjudligi.

Insonshunoslik fanlari tizimida inson muammosi. Ruhiyatshunoslik, pedagogika, antropologiya kabi insonshunoslik fanlarida bilish ob'ekti, predmeti, tadqiqot vositalari va usullarida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lib turishi va buning inson muammosiga yangicha yondashish imkoniyatini berishi.

Yangilanayotgan O'zbekiston va inson ma'naviy borlig'iga yangicha yondashuv.

### **Falsafa tarixida inson muammosi (4-soat)**

Insonning xudo tomonidan yaratilishi to'g'risidagi diniy qarashlarning tarixan birlamchiligi. Dinning ilk ko'rinishi bo'lgan afsonalarda yaratilish masalalaridagi muqobilliklar. Ilmiy bilimlarning asta-sekin rivojlanishiga bog'liq ravishda antropogenezga doir dalillarning to'plana borganligi.

Sharq falsafasida inson haqidagi bilimlar. Hind falsafasida insonning ijtimoiy-ma'naviy mohiyati. Buddaviylik.

Konfutsiy ta'limoti, uning nazariy va amaliy jihatlari. "Inson tabiati ezguligi" nazariyasi. Inson yashayotgan tabiiy-ijtimoiy muhit o'zgarishi bilan, uning o'zi ham o'zgarib borishi haqidagi fikr mulohazalar eramizdan avvalgi VI asrda vujudga kelgan daosizm ta'limotida olg'a surilishi.

Zardo'shtiylik ta'limoti, unda odam bilan olam o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik masalasi.

Islom falsafada inson muammosi.

Tasavvufda inson borliqdagi eng mukammal mavjudod, u o'zida olamning mohiyati jam etishi xususidagi g'oyalar. Naqshbandiya ta'limotida inson fayzining ibtidosi masalasi. Yassaviyning yuksak ahloqiy poklik va insoniylik haqidagi g'oyalari.

Markaziy Osiyo falsafiy tafakkuri (Forobiy, Ro'dakiy, Beruniy, Ibn Sino, Nosir Xisrav, Jaloliddin Rumi, Alisher Navoiy, Taftazoniy, Jomiy)da inson va unga bo'lgan muhabbat, insonning o'z-o'zini tashkillashtirishi haqidagi qarashlar. Inson hayotining mazmuni va baxt saodatga erishuv vositalari.

Inson borlig'i to'g'risidagi falsafiy bilimlarni rivojlanishi. Yusuf Qorabog'iy. Mirzo Bedil. Maxdum A'zam tomonidan "vujud dehqoni" ta'limotini ilgari surilishi

Jadid ma'rifatparvarlarining asarlarida inson kamoloti muammolari.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda inson ma'naviy borlig'iga yangicha yondashuv shakllanishining falsafiy jihatlari.

Antik yunon falsafasida inson mohiyati, ijtimoiy roli, o'z-o'zini anglashi, insonning jamiyat va fazoga bo'lgan munosabati haqidagi g'oyalar.

Renessans davri Yevropa falsafasining antropotsentrik xususiyati. Yangi davr falsafasida inson o'z-o'zini anglashga, insonning fikrlovchi "Men"iga (Dekart) tenglashtirilishi.

Ma'rifiy yuksalish davrida insonning tabiiy holati, "tug'ma" insoniy

huquqlar haqidagi qarashlarning rivojlanishi. J.Lokk. I.Kant.

Zamonaviy falsafada inson – ongli irodaviy faoliyat yurituvchi erkin va mas’uliyatli sub’ekt sifatida birinchi o‘ringa qo‘yilishi.”Hayot falsafasi”da ruhiy faoliyat, iroda erkinligi, hayot mohiyati, ong, intellekt, axloqiy kamolot masalalari tahlili. Pragmatizm falsafasida inson hayotida e’tiqodning o‘rni masalasi. Inson hayotining mavjudligi, mohiyati, mazmuni, borliq va inson borlig‘i ekzistensializm falsafasida. Men de Biranning «Volo yeggo sum» - «xohlayapman, demak, mavjudman», A.Kamyuning «isyon kilyapman, demak, yashayapman» kabi fikrlari inson tabiati va mohiyatining yangi-yangi kirralarini namoyon etishi. Inson salohiyati. Insonning tabiatdan va insonning boshqa insonlardan begonalashishi masalasi. Hayot mazmuni, absurdlik.

Z.Freyd insonning tabiati xaqida. «Edip kompleksi» va libido tushunchalari.

Liberalizm g‘oyalari, nazariya va konsepsiyalari. Ortodoksal, demokratik jamiyat, ruhoni davlatda individualizm, egoizm tushunchalari. F.Xaek, J.Mill, K.Gadjievning individualizm falsafasi.

Inson muammosiga yangicha yondashuvlar. Sinergetika.

### **Falsafiy antropologiya**

Inson falsafaning ob’ekti. Insonning paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi gipotezalar. Kreatsionizm va evolyusionizm. Darvinning evolyusion nazariyasining insonga oid tabiiy-ilmiy tadqiqotlarga kuchli turtki bergani.

Sharq va g‘arb falsafasida inson antropologiyasi. Falsafiy antropologiyaning shakllanishi va rivojlanishi. Falsafiy antropologiya insonning alohida borliq manbai sifatida kelib chiqishi, tadrijiy rivojlanishi va mavjudligining o‘ziga xos xususiyatlariga doir falsafiy qarashlarni aks ettirishi. Falsafiy antropologiya yechadigan muhim muammolar orasida inson biologik va ijtimoiy mohiyatining o‘zaro nisbati to‘g‘risidagi masala alohida o‘rin egallashi.

Falsafiy-antropologik ta’limotlar. Maks Sheller, Gelmut Plesner, Arnold Gelenning inson haqidagi qarashlari. Antroposotsiogenez nazariyasi, uning falsafiy va tabiiy – ilmiy zaminlari. Biologik, madaniy va diniy yondashuvlar. Arnold Gelenning biologik antropologiyasi.

E.Rotxaker, M.Landman, G.Xengetenberglar antropologiyasi.

Olamdagi tirik mavjudotlar ichida «inson — eng aqlli mavjudot», «inson — o‘zini o‘zi anglovchi mavjudot», «inson — ma’naviy va erkin mavjudot» ekanligi. Hayvonlarning (gomo- noid) odamga aylanishi (antropogenez) va ularning ma’lum bir jamiyatga birlashish jarayoni (sotsiogenez) olimlarning guvohlik berishicha taxminan uch-uch yarim million yil davom etganligi. Antropogenez va sotsiogenez yagona bir jarayonning ajralmas ikki tomoni. Tirik mavjudotlar olamidan odamning ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turishi.

Antropogenez jarayonida mehnatning roli. Mehnat qurollarining yaratilishi-insonning ishlab chiqarish borasidagi faoliyatining o‘q tomiri ekanligi. Mehnat qilish insonni takomillashtirish bilan asta-sekin olamning ichkarisiga tomon kirib boraverdi. Yuqoridagi mulohazalardan shunday xulosaga kelish mumkinki, mehnat – antropogenez va sotsiogenez jarayonining markaziy omili.

Antroposotsiogenez jarayonida inson ongi, aql-farosati shakllanishida,

uning amaliy faoliyatini ma'lum bir maqsad tomon yo'naltirishda til eng muhim vosita vazifasini bajarishi. Til moddiy va ma'naviy madaniyat vujudga kelishida ham ulkan ahamiyatga egaligi.

Hozirgi zamon antropologik falsafasining inson mohiyati to'g'risidagi xulosalari.

### **Inson, uning tabiiy-ijtimoiy mohiyati**

Inson falsafaning bosh mavzusi. Insonning yaralishi, mohiyati va jamiyatda tutgan o'rni. Insonda biologik, ijtimoiy va psixik xususiyatlar. Inson tabiati. Inson va olam. Insonning olamda tutgun o'rni.

Insonni nazariy va amaliy faoliyati. Texnosfera va noosferani shakllanishi. Ijtimoiy taraqqiyotning mazmuni va yo'nalishi. Borliq va inson. Madaniyat, siyosat, sivilizatsiya, bilish kabi masalalar inson manfaatlari va insoniy mohiyatning namoyon bo'lish shakllari sifatida.

Insonga xos xususiyatlar, axloqiy normalar, uning faoliyatini boshqaruvchi dasturlar. Inson o'z xulq-atvorida ma'naviy-axloqiy motivlarga tayanishi. Inson ehtiyoji. Vital ehtiyoj (organik), ijtimoiy ehtiyoj (muloqot qilish, o'zini tan oldirish va h.), ma'naviy ehtiyoj (ideal – ijod qilish, bilish, axloq va h.). "Yo'ldan ozdiruvchi" ehtiyojlar (masalan, chekish, spirtli ichimliklar ichish va h.), kvazi ehtiyojlar.

Inson tarixiy va ekzistensial hodisa sifatida.

Ijtimoiy mavjudod sifatida insonni shakllantiruvchi elementlar. Tarbiya, axloq, fan, din, san'at va h.

Inson faolligi va faoliyatining ijtimoiy- madaniy turlari. Marginal inson. Ijtimoiy voqelikka munosabat bildirish usuli bo'yicha – konformist ("maksimum foyda, minimum noqulaylik"); pragmatik yoki eskepist (eskeydizm-jamiyatdan ongli ravishda qochish); jamiyatga tanqidiy yondashuvchilar-nigilist, reaksioner (konservator va retrograd, yangilikka qarshilik bildiruvchilar); revolyusioner(voqelikni o'zgartirishga intiladi, ko'pincha zo'ravonlik va buzg'unchilik usulini qo'llaydi); reformator.

Insonning ijtimoiy-rolli yoki ekzistensial-namoyon bo'lishiga ko'ra tasnifi. Nazariy, pragmatik, estetik, ijtimoiy, siyosiy va diniy.

### **Inson ma'naviy borlig'i: barqarorlik va beqarorlik dialektikasi**

Ong va uning mohiyati. Inson ma'naviy dunyosi, o'zining dunyoda borligini anglab yetish va tashqi dunyoga munosabati. Inson ma'naviy borlig'i sistemani tashkil etuvchi element sifatida.

Barqarorlik (muvozanat, turg'unlik, takrorlanuvchanlik, muros, kelishuvchanlik) va beqarorlik tushunchalari, ularning sistema mavjudligiga ijobiy va salbiy ta'siri. Inson ruhiy (tabiati, instinkt, did, kayfiyat, mayd, tuyg'u, kechinma, hayrat, iztirob, zavq, qo'rquv va h.) va ma'naviy (ongi, bilimi, aqli, maqsadi, farosati, ijod, muloqot va h.) holatidagi barqarorlik va beqarorlik. Inson ruhiyati, umuman ma'naviy olamida beqarorlik xosligi. Inson ma'naviy borlig'ida beqaror holatlarning kelib chiqishi sabablari (inson talablari, ehtiyojlari va imkoniyatlarining garmonik tarzda rivojlanmaganligi, jamiyatdagi iqtisodiy ijtimoiy munosabatlar va h.). Beqarorlikning sodda va murakkab shakllari va darajalari. Beqarorlikning inson ma'naviy kamolotidagi o'rni. Inson ma'naviy

borlig'ida barqarorlik va beqarorlik holatlarining me'yoriy darajasi.

Inson ma'naviy borlig'ida nochiziqlik prinsipining amal qilishi. Iroda erkinligi. Ichki va tashqi ta'sirlar natijasida inson ma'naviy borlig'ida sifatiy o'zgarishlar xaotik yoki tartiblashgan tarzda sodir bo'lishi. Tizimdagi nochiziqlik mexanizmini bifurkatsiya jarayoni ta'minlashi. Bifurkatsiya (ingizcha- sanchqi) holatida sistema oldida bir necha yo'llar paydo bo'lishi va to'g'ri variantlardan birini tanlashida sifatiy o'zgarishlar ro'y berishi. Sifatiy o'zgarishlarning musbat va manfiy bo'lishi. Bu jarayonlar fazo va vaqtdabir xil emasligi. O'tish davrlarida keskin, bo'ronli kechishi yoki sistemaning yetuklik davrida barqarorlik sodir bo'lishi, zamonada tobora barqaror tizimlarni tashkil eta borishi.

Insonning barqaror taraqqiyotga intilishi va bunda har xil tashqi ta'sirlarning inson ma'naviy borlig'iga ta'sirining kamayishi.

#### **Inson, shaxs va individ (4-soat)**

Murakkab va ko'p qirrali mavjudod-inson mohiyati yaxlit bir butunlik sifatida "inson" "individ", "individualli"», "shaxs" tushunchalar orqali ifodalanishi. Inson faoliyati va insonlar o'rtasidagi aloqa. «Individ» tushunchasi muayyan insonning boshqa odamlardan alohi-da-li-gi-ki, «chegaralanib» olganligini ifoda etilishi. Individning asosiy xususiyati. Individ – bu insonning eng oddiy va abstrak tavsifi ekanligi. Sotsiologiya nuqtai nazaridan individ – bu inson naslining ayrim olingan vakili. Falsafada individ ijtimoiy atom, alohida ajralib turuvchi mohiyat sifatida ta'riflanishi. "Individ-jamiyat" aloqadorligi. O'z jamiyatini anglash.

Individuallik – individdan shaxsga olib boruvchi pog'ona. «Sub'ekt» tushunchasi. Sub'ektivlik.

Shaxs tushunchasi falsafada va umuman insonni o'rganuvchi fanlar majmuasida eng murakkab tushuncha ekanligi. Shaxsning shakllanishi jarayoni sotsializatsiya jarayoni sifatida tushunilishi. Shaxs o'z-o'zini tarbiyalovchi va o'z-o'zidan rivojlanuvchi sistema. Shaxs faolligi mezonlari va yo'nalishlari. "Shaxs sifatni" belgilovchi xususiyatlar. Ijtimoiy inersiya va shaxs mustaqilligi.

Mustaqil shaxsni shakllantirishning metodologik asoslari. Falsafa tarixida shaxs haqidagi qarashlarning o'zgarib borishi. Shaxsning sharqqa xos modeli. Shaxsning g'arb, yevropa-amerika konsepsiyalari. Shaxsning sharq tipiga xos asosiy xususiyatlari. Buyuk shaxslarning ijtimoiy taraqqiyotidagi roli.

Shaxsning noyobligi va takrorlanmasligi. Shaxs shakllanishida oila, mahalla, mehnat jamoalari va ta'lim-tarbiya muassasalarining hamkorligi shaxs dunyoqarashining shakllanishi va rivojlanishida jamoat tashkilotlari va o'z o'zini boshqarish tizimining funksonal mohiyat. Shaxs erkinligi, tashabbuskorligi va mustaqilligini kuchaytirish – fuqarolik jamiyati shakllanishining muhim omili

Hozirgi zamon fanida inson shaxsi konsepsiyalari. Zamonaviy shaxs nazariyasidagi asosiy g'oyalar.

Innovatsion shaxs tipining xususitlari. Saqlash (axloqiy tafakkur); fikrlash (unumli tafakkur); baholash (ijodiy tafakkur); yangilik (innovatsion tafakkur); maqsad (ijtimoiy taakkur).

#### **Jamiyat va shaxs**

Jamiyat va shaxs, ularning uzviy birligi va aloqadorligi. Jamiyat va shaxs

orasidagi o'zaro aloqadorlik haqidagi falsafiy qarashlar. Jamiyatning shaxsga ta'siri.

Shaxsning jamiyatga ta'siri. Shaxs erkinligi va mas'uliyati. Tanlov erkinligi.

Shaxsning tarixiy tiplari. Shaxsiy qaramlik. Mulkiy qaramlik. Qaram shaxs. Shaxs mustaqilligi. Mustaqil shaxs. Shaxsning erkinligi va mas'uliyati. Iqtisodiy erkinlik. Siyosiy erkinlik. Ma'naviy erkinlik. Inson erkinliklari va haq-huquqlari. Mustaqillik sharoitida inson haq-huquqlari va erkinligining ta'minlanishi.

Fuqarolik jamiyati va shaxs.

### **Shaxs daxldorligi va madaniyati (4-soat)**

“Daxldorlik”, “daxldorlik tuyg‘usi” tushunchalari, axloqiy, ijtimoiy-tarixiy negizlari. Daxldorlik tuyg‘usi - har bir insonning o‘zligi, imon-e’tiqodi, vijdoni, oilasi, millati, vatani, o‘tmish ajdodlar va umuminsoniyatning tarixiy-falsafiy meroslariga hurmati, inson, jamiyat va tabiatga nisbatan mas’uliyati, ma’naviy-axloqiy yig‘indisi.

Daxldorlik tuyg‘usi(ning) shaxs ma’naviy qiyofasini belgilovchilik mazmuni va mohiyati. Daxldorlik tuyg‘usi yuzaga kelishining milliy va umuminsoniy jihatlari. Milliy ma’naviy daxldorlik va shaxsning ijtimoiylashuvi. Daxldorlik tuyg‘usining shaxs faoliyatida namoyon bo‘lishi va takomillashish omillari.

Daxldorlik tuyg‘usi mohiyatiga ko‘ra: insonning-insonga; insonning-jamiyatga; insonning-tabiatga munosabati. Daxldorlik tushunchasini ko‘lami yoki miqyosi nuqtai-nazaridan: tabiatga xos daxldorlik; jamiyatga xos daxldorlik. Daxldorlikning inson hayotida namoyon bo‘lishiga ko‘ra: ijobiy va salbiy jihatlari.

Daxldorlik tuyg‘usini shakllantirish va uni jamiyat taraqqiyotiga yo‘naltirish millatning o‘zligini to‘la anglash jarayoni bilan bog‘liqligi.

Shaxs madaniyatini ifodalovchi eng muhim ijtimoiy va axloqiy fazilatlar: axloqiy madaniyat, muomala madaniyati, aqliy zukkolik, huquqiy madaniyat. Axloqiy madaniyat jamiyat a‘zolari tomonidan axloqiy me‘yorlar, tamoyillar, ideallarni o‘zlashtirish, ularni shaxsiy amaliy faoliyat qoidalarga aylantirish, amaliy jihatdan o‘z hatti-harakatlarida, kundalik xulqiy hayotida aks etish darajasini belgilaydigan tushuncha.

Axloqiy tafakkur madaniyati - “axloqiy baholash qobiliyati”, axloqiy bilimlardan foydalanish qobiliyati, malakasi; yaxshilik bilan yomonlikni farqiga borish qobiliyati; har qanday sharoitda ustivor axloqiy tamoyillarni qo‘llab-quvvatlash; - tuyg‘ular madaniyati: insondagi axloqiy ta’sirchanlik, axloqiy hamdardlik, ustivor axloqiy talablarni chuqur his etish layoqati; - xulq madaniyati: insonning axloqiy tajribasida fikr va tuyg‘ular birligiga erishish, namunaviy axloqiy andoza, kishilar hattiharakatida ularni qo‘llay bilish darajasi; - odob (etiket): shaxs xulqi shakllarini qat’iylashtiradigan qoidalar bilan o‘zaro muloqotda amalga oshirish darajasi.

Muomala madaniyati. So‘zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlari. Etiket-takallufning mayda-chuyda jihatlari gacha ishlab chiqilgan odob qoidalari sifatida ijobiy, kishining ko‘zini quvontiradigan munosabat hodisasi.

Aqliy zukkolik. Aqliy zukkolik shaxsning mustaqilligini, vaziyatga

to'g'ri baho berishini anglatadi. Ijtimoiy vaziyatga nisbatan aqliy zukkolik omili bo'lib topqirlik, muomilaga kirishimlilik, ijtimoiy psixalogiyani yaxshi tushunish va tug'ma iste'dod.

Axloqiy madaniyatni shakllantiruvchi omillar. Din. San'at.

Mehnatga halol munosabat va siyosiy madaniyat: ularning shaxs madaniy saviyasiga ta'siri. Mehnatga halol munosabat - o'z xizmat vazifasini, o'z burchini aniq bajarish, o'ziga topshirilgan vazifani a'lo darajada, sidqidildan ijro etish, oila, jamoa, xalq, millat, jamiyat manfaati yo'lida qilingan fidoiylarning samarasi. Mehnatga halol munosabat – mulkdorlik hissini, tadbirkorlik madaniyati biznes faoliyati rivojlanganligi sifatida. Mehnat faolligi – mehnat bozorida shaxs, ya'ni ish kuchini raqobatbardoshligining aks etishi

Erkinlik va mas'uliyat – shaxs mustaqilligini shakllantiruvchi omillar sifatida. Iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy erkinlik. Erkinlik va mas'uliyat inson faoliyatining o'zaro uzviy bog'liq ikki tomoni. Mas'uliyat – ijtimoiy ahamiyatli burch va vazifalarning bajarilishi, muayyan axloqiy tamoyillarga rioya qilish bo'yicha shaxsning jamiyat a'zolari oldidagi javobgarligi. Mas'uliyatning xilma-xil ko'rinishlarda namoyon bo'lishi. Siyosiy, xuquqiy, axloqiy mas'uliyat, shaxs mas'uliyati, jamoa mas'uliyati va x.k.

Shaxs ko'nikmalari. Hayot to'siqlarini yengish qobiliyati, qat'iyat va intizom; shaxsiy tashabbus va kreativlik; fundamental bilimlarga egalik, uch va undan ortiq xorijiy tilni bilish; ilm-fandagi eng so'ngi yangiliklardan xabardorlik va pragmatiklik; zamonaviy informatsion texnologiyalarni bilish yuqoriligi; nostandart holatlarda eng to'g'ri, maqbul yechim topa bilish va kasbiy mahorat; o'ziga o'zi hisob berish ko'nikmasi va tanqidiy fikrlash.

### **Inson oliy qadriyat**

Inson va uning qadri muammosi falsafaning azaliy mavzusi. Inson alohida, mutlaq qadriyat. Inson tarixiy taraqqiyot jarayonida turli xislatlar, sifatlar va xususiyatlarga ega bo'lgan, ma'naviy-axloqiy jihatlarni qiyofasida aks ettirgan ijtimoiy mavjudod sifatidagi asosiy qadriyatli sub'ekt.

Insonning o'zini qadriyat sifatida talqin qilish bilan uning qadri va shaxsiy darajadagi qadriyatlar tizimi to'g'risidagi masalalarning bir-biridan farqi. Har bir insonga qadriyat sifatida qarash. Insonning ijtimoiy jarayonlardagi o'rni, atrof-muhit va boshqa kishilar uchun ahamiyati, jamiyatdagi mavqeyi qadrlanishi.

Shaxsning ma'naviy olami, qiziqishlari, talab va ehtiyojlari bilan bog'liq qadriyatlar. Shaxsiy qadriyatlar tizimi va mazmuni. Odamzotning tabiiy-tarixiy qadriyatlari. Ma'naviy axloqiy qiyofasi, nafosati va go'zalligi bilan bog'liq qadriyatlar. Mehnati va iqtisodi bilan bog'liq qadriyatlar. Qobiliyati va iste'dodi bog'liq intellektual qadriyatlar. His-hayajon bilan bog'liq emotsional qadriyatlar.

Inson sog'lig'i qadriyat sifatida.

Inson hayoti (umri), o'lim va mangulik muammolari. Hayotning ma'nosi-ruh salomatligi, farog'atga eltuvchi mehnat va bilim ekanligi. Inson umrining cheklanganligi. O'lim oldidagi qo'rquv. O'limni ma'naviy anglash. Umrning ma'nosi. «O'lim huquqi». Evtanaziya muammosi. O'limni anglaganlik – insonning xos jihati. Asotir, din va fanda inson o'limi maqsadlari. Insonning hayot va o'lim bog'liqligida o'z «Men»ni anglashi. O'lim tuyg'usi va hayotning manosi. O'lim



tashvishlarini manaviy usul bilan bartaraf etish mumkinligi masalasi. O‘lim – «madaniyat ko‘z gusi».

“Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish” g‘oyasida inson qadrlining ifodalanishi.

### **Inson taraqqiyoti va barqaror rivojlanish**

“Inson taraqqiyoti” va “barqaror rivojlanish” tushunchalari. Inson taraqqiyoti mezonlari.

“Inson kapitali”. Inson kapitali – bu xodim ta’lim olish (maktab, kollej, litsey, institut, universitet, kasbiy tayyorgalik va malaka oshirish kurslari) hamda mehnat faoliyati jarayonida egallaydigan bilimlar va mehnat ko‘nikmalar. Inson kapitali shakllanishi va rivojlanish muammolari.

“Inson taraqqiyoti” konsepsiyasi. Inson taraqqiyoti mezonlari. Inson taraqqiyoti omillari. Inson taraqqiyoti indeksi va hisoblash usullari. “Inson taraqqiyoti indeksi” (Human Development Index – HDI) mamlakat yutuqlarining o‘rtacha darajasini uch yo‘nalish: salomatlik va uzoq umr ko‘rish (umr davomiyligi), ta’lim sifati va darajasi (ta’lim olish davomiyligi) hamda munosib va farovon hayot kechirish darajasi (aholi jon boshiga yalpi milliy daromad) bo‘yicha baholanishi.

Barqaror rivojlanish. BMT sammitining (2010 yil) Ming yillik rivojlanish maqsadlaridagi asosiy masalalar (8 maqsad, 18 vazifa, 48 ko‘rsatkich). BMT Bosh Assamblisining (2015 yil) 2030 yilgacha barqaror rivojlanish masalalari. Inson taraqqiyoti indikatorlari. Umr davomiyligi. Bilimlar. Munosib turmush darajasi. Inson taraqqiyotini baholashning xususiyatlari. 2015-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining ming yillik rivojlanishga qaratilgan 17 ta maqsadlari mohiyati. Maqsadlardan oltitasi inklyuziv ta’limni rivojlantirishga, kambag‘allikni yo‘q qilishga, sifatli ta’limni ta’minlashga, tengsizlikni kamaytirishga, gender tenglig va ijtimoiy integratsiyaga qaratilgani. O‘zbekistonda inson taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari. O‘zbekistonning 2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi maqsad va vazifalari.

Barqaror rivojlanish iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorlikni taqozo etib, bunga jismoniy, tabiiy va inson kapitalini ratsional boshqarish orqali erishilishi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasining ishlab chiqilishi. Atrof -muhit muhofzasiga bag‘ishlangan BMT konferensiyasi. “Barqaror rivojlanish” tushunchasining paydo bo‘lishi. “Rio+20” Barqaror rivojlanish bo‘yicha BMT konferensiyasi.

Barqaror rivojlanish (ingl. sustainable development) — bu iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar jarayoni bo‘lib, unda tabiiy resurslar ekspluatatsiyasi sarmoyalar yo‘nalishi, ilmiy-texnik rivojlanishga yo‘naltirilganlik, shaxs rivoji va instutsional o‘zgarishlar bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, insonning ehtiyojlarini qondirish uchun bugungiva ertangi salohiyatni shakllantiradi. Bunda asosan inson hayoti sifatini oshirish nazarda tutilishi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari.

Barqaror rivojlanishning milliy hujjatlarda aks etishi. Barqaror rivojlanish bo‘yicha O‘zbekistonning qonunchilik asosi Orol dengizi havzasida barqaror rivojlanish muammolari bo‘yicha Markaziy Osiyo davlatlari hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan Nukus deklaratsiyasi O‘zbekistonning

“yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi.

### **Hozirgi zamon sivilizatsiyasining insonga ta’siri**

Hozirgi zamon sivilizatsiyasining asosiy xususiyatlari va namoyon bo‘lishi.

Internet-global tarmog‘i va global ong. Ijtimoiy tarmoqlar, ularning inson uchun virtual makonni yaratish imkoniyatlari. G‘oya va takliflar bilan tanishish. Iste’molchilar va sheriklar bilan munosabatlarning rivojlanishi. Inson resurslarini boshqarish izchilligi, motivlashtirish, rag‘batlantirish, tashkiliy rivojlanish, karerani boshqarish. Salohiyatli kadrlar, tanlash va baholash. Ma’sofaviy ta’lim va bilim olish imkoniyatlari.

Global etika va gumanizm. Inson turmush tarzida, uning ongi va faoliyatida vujudga kelgan turli muammolarni stol atrofida o‘tirib muhokama qilish, g‘ayriinsoniy munosabatlarni yuksak madaniy ma’rifiy muloqotlar, uchrashuvlar, turli aloqalar yo‘li bilan hal etishning avj olganligi. Umuminsoniy muammolarni bartaraf etish uchun jahonning barcha davlatlari, barcha millat va elatlar birlashib harakat qilishlarining zaruriyati kundan kunga oshib borishi. Insoniyat endilikda hamkorlik qilish madaniyatiga ega bo‘lishi zarurligini anglashi. Har bir kishining taqdiri, baxt-saodati, insoniyatning taqdiri eng avvalo, yer yuzida tinchlikni saqlash, yadroviy urushning oldini olish, qurollanish poygasiga chek qo‘yish, xalqaro xavfsizlikni ta’minlash bilan bevosita bog‘liq ekanligi.

Global biosfera etikasi. Inson nazariy va amaliy faoliyati ekologiyalashuv zaruriyatining oshishi. Tabiat -inson hayoti va faoliyatining asosi sifatida anglanishi.

Nanotexnologiyalar va komfort ehtiyoji. Bugungi kunda sivilizatsiya deganda inson ixtiyorida mavjud bo‘lgan texnika yordamida uning yashashi, ishlashi, turmush tarzini takomillashtirish uchun qulayliklar (komfortlar), yaratilgan predmetlar, hodisalar tushinilishi. Elektoron pochta, chat veb bloglar va veb sahifalar, elektron ofis, reklama va marketing kabilarning inson faoliyatiga ijobiy o‘zgarishlar kiritishi

### **Fuqarolik jamiyati rivojlanishi sharoitida inson omiliga yangicha yondashuv**

Har qanday demokratik davlatning rivojlanishdan asosiy maqsadi -insondir. Fuqarolik jamiyatining qaror topishi shaxsning ijtimoiylashuvi, ya’ni insonlarning demokratik tamoyil va qadriyatlarni o‘zlashtirishi uchun qulay muhit bo‘lsa, o‘z navbatida, shaxsning bunday jarayonda ongli tarzda ishtiroki fuqarolik jamiyati amal qilishining bosh omiliga aylanishi.

Fuqarolik jamiyati qurish jarayonining asosiy vazifasi – odamlarni ajratuvchi chegara va to‘siqlarni bartaraf etish, hamkorlikda ish yuritish. Fuqarolik jamiyatining asosiy maqsadi insonning munosib hayot kechirishini, barcha hayotiy orzu-maqsadlari shu jamiyatdagi siyosiy tashkilotlar, ijtimoiy institut, guruh, oila va boshqa jamoat birlashmalari orqali amalga oshirilishini ta’minlash.

Insonning oliy qadriyat sifatida huquq va manfaatlarining ta’minlanishi, jamiyatda uning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish bilan o‘zaro

bog'liqligi.

Jamiyatni erkinlashtirish. Jamiyatda plyuralizm, fikrlar xilma-xilligi, siyosiy hayotning rang-barangligi, mafkuraviy jarayonlarda ilg'or g'oyalarning mavjud bo'lishi. Jamiyatni erkinlashtirish natijasida davlatning jamiyatga, har bir inson hayotiga ta'sirini kamayishi. Erkin jamiyatda inson, o'z-o'zini tashkillashtirish, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini anglash imkoniga ega bo'lishi. Shaxs erkinligi. Intelektual erkinlik Iqtisodiy erkinlik. Ijod erkinligi.OAVlari erkinligi

Fuqaroviy faollik inson va fuqarolik jamiyati rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi

### SEMINAR MAVZULARI VA REJALARI

No	Seminar mavzulari va rejalari	Soat
	<b>1-MODUL</b>	
1	<b>Inson falsafasi fani predmeti va asosiy vazifalari</b> <b>Reja.</b> 1. Inson muammosi falsafiy tadqiqot predmeti sifatida, uning dolzarbligi va o'ziga xos xususiyatlari. 2. Inson falsafasining ob'ekti va predmeti 3. Inson falsafasi fani muammolari va vazifalari 4. Yangilanayotgan O'zbekiston va inson ma'naviy borlig'iga yangicha yondashuv	2
1	<b>Falsafa tarixida inson muammosi</b> <b>1-mashg'ulot rejasi</b> 1.Sharq va G'arb falsafasida inson haqidagi bilimlar. 2.Islom falsafasida inson masalasi 3.Forobiy, Ro'dakiy, Beruniy, Ibn Sino, Nosir Xisrav, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Taftazoniy, Jomiy asarlarida inson kamoloti muammolari. 4.Inson borlig'i to'g'risidagi falsafiy bilimlarni rivojlanishi. Yusuf Qorabog'iy. Mirzo Bedil. Maxdum A'zam <b>2-mashg'ulot rejasi</b> 1. 1.Xristian falsafasida insonga munosabat 2. 2.Renessans davri Yevropa falsafasining antropotsentrik xususiyati. 3. 3.Yangi davr falsafasida inson mohiyati 4.	2
	<b>2-MODUL</b>	

1	<p style="text-align: center;"><b>Falsafiy antropologiya</b> <b>1-mashg‘ulot rejasi</b></p> <p>1. Insonning paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi gipotezalar. Kreatsionizm va evolyusionizm nazariyasi</p> <p>2. Falsafiy-antropologik ta‘limotlar. Maks Sheller, Gelmut Plesner, Arnold Gelen</p> <p>3. Diniy antropologiya. Gans Xenstenberg. Feliks Xammer. E.Rotxaker, M.Landman, G.Xengetenberglar antropologiyasi</p> <p>4. Zamonaviy falsafiy antropologiya. Odo Markvard.</p>	2
2	<p style="text-align: center;"><b>Inson, uning tabiiy-ijtimoiy mohiyati</b> <b>Reja</b></p> <p><b>5.</b> . . Insonda biologik, ijtimoiy va psixik xususiyatlar</p> <p><b>6.</b> . Madaniyat, siyosat, sivilizatsiya, bilish inson manfaatlari va insoniy mohiyatning namoyon bo‘lish shakllari sifatida.</p> <p><b>7.</b> . Inson faolligi va faoliyatining ijtimoiy- madaniy turlari.</p> <p><b>8.</b> . Insonning ijtimoiy-rolli yoki ekzistensial-namoyon bo‘lishiga ko‘ra tasnifi. Nazariy, pragmatik, estetik, ijtimoiy, siyosiy va diniy.</p>	2
<b>3-MODUL</b>		
1	<p style="text-align: center;"><b>Inson ma‘naviy borlig‘i: barqarorlik va beqarorlik dialektikasi</b> <b>1-mashg‘ulot rejasi</b></p> <p>1. Ong va uning mohiyati. Inson ma‘naviy borlig‘i sisteia sifatida</p> <p>2. Barqarorlik (muvozanat, turg‘unlik, takrorlanuvchanlik, murosa, kelishuvchanlik) va beqarorlik tushunchalari, ularning sistema mavjudligiga ijobiy va salbiy ta‘siri.</p> <p>3. Beqarorlikning sodda va murakkab shakllari va darajalari.</p> <p>4. Inson ma‘naviy borlig‘ida nochizozlik prinsipining amal qilishi. Iroda erkinligi.</p> <p>5. Insonning barqaror taraqqiyotga intilishi va bunda har xil tashqi ta‘sirlarning inson ma‘naviy borlig‘iga ta‘sirining kamayishi.</p>	2
2	<p style="text-align: center;"><b>Inson, shaxs va individ</b> <b>Reja.</b></p> <p>1. Murakkab va ko‘p qirrali mavjudod-inson mohiyati yaxlit bir butunlik sifatida “inson” “individ”, “individualli”», “shaxs” tushunchalar orqali ifodalanishi.</p> <p>2. Individuallik - individdan shaxsga olib boruvchi pog‘ona. «Sub’ekt» tushunchasi. Sub’ektivlik.</p> <p>3. Shaxsning noyobligi va takrorlanmasligi.</p> <p>4. Shaxsning sharqqa xos modeli. Shaxsning g‘arb, yevropa-amerika konsepsiyalari.</p>	2

3	<p style="text-align: center;"><b>Jamiyat va shaxs Reja.</b></p> <p>1. Jamiyat va shaxs orasidagi o'zaro aloqadorlik haqidagi falsafiy qarashlar. 2. Jamiyatning shaxsga ta'siri. 3. Shaxsning jamiyatga ta'siri. Shaxs erkinligi va mas'uliyati. Tanlov erkinligi. 4. Shaxsning tarixiy tiplari. Shaxsiy qaramlik. Mulkiy qaramlik. Qaram shaxs.</p>	2
<b>4-MODUL</b>		
1	<p style="text-align: center;"><b>Shaxs daxldorligi va madaniyati</b></p> <p style="text-align: center;"><b>1-mashg'ulot rejasi</b></p> <p>1. "Daxldorlik", "daxldorlik tuyg'usi" tushunchalari. Daxldorlik tuyg'usi(ning) shaxs ma'naviy qiyofasini belgilovchilik mazmuni va mohiyati. 2. Daxldorlik turlari va namoyon bo'lish shakllari. 3. Daxldorlik tuyg'usi yuzaga kelishining milliy va umuminsoniy jihatlari.</p> <p style="text-align: center;"><b>2-mashg'ulot rejasi</b></p> <p>1. Shaxs axloqiy madaniyati. Muomala madaniyati, aqliy zukkolik, huquqiy madaniyat. 2. Erkinlik va mas'uliyat. Siyosiy, xuquqiy, axloqiy mas'uliyat, shaxs mas'uliyati, jamoa mas'uliyati 3. Shaxs ko'nikmalari</p>	2
2	<p style="text-align: center;"><b>Inson oliy qadriyat Reja.</b></p> <p>1. Inson va uning qadri muammosi 2. Insonning ijtimoiy jarayonlardagi o'rni, atrof-muhit va boshqa kishilar uchun ahamiyati, jamiyatdagi mavqeyi qadrlanishi 3. Inson hayoti (umri), o'lim va mangulik muammolari.</p>	2
<b>5-MODUL</b>		
1	<p style="text-align: center;"><b>Inson taraqqiyoti va barqaror rivojlanishi</b></p> <p style="text-align: center;"><b>1-mashg'ulot rejasi</b></p> <p>1. "Inson taraqqiyoti" va "barqaror rivojlanish" tushunchalari. 2. "Inson kapitali". Inson kaptali shakllanishi va rivojlanish muammolari. "Inson taraqqiyoti" konsepsiyasi 3. Barqaror rivojlanish maqsadlari. BMT sammitining (2010 yil) Ming yillik rivojlanish asosiy masalalari (8 maqsad, 18 vazifa, 48 ko'rsatkich). 4. MT Bosh Assamblisining (2015 yil) 2030 yilgacha barqaror rivojlanish masalalari. 5. 'zbekistonda inson taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari.</p>	2

	O'zbekistonning 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi maqsad va vazifalari	
2	<p style="text-align: center;"><b>Hozirgi zamon sivilizatsiyasining insonga ta'siri</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Reja.</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Hozirgi zamon sivilizatsiyasining asosiy xususiyatlari va namoyon bo'lishi</li> <li>2. Internet-global tarmog'i va global ong.</li> <li>3. Global etika va gumanizm.</li> <li>4. Global biosfera etikasi.</li> <li>5. Nanotexnologiyalar va komfort ehtiyoji.</li> </ol>	2
3	<p style="text-align: center;"><b>Fuqarolik jamiyati rivojlanishi sharoitida inson omiliga yangicha yondashuv</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Reja:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Fuqarolik jamiyatining qaror topishi va shaxsning ijtimoiylashuvi</li> <li>2. Davlatning jamiyatga, har bir inson hayotiga ta'sirini kamayishi. O'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini nazorat qilish</li> <li>3. Fuqaroviy faollik. Konstruktiv va destruktiv ijtimoiy faollik. Ijtimoiy-siyosiy faollik</li> </ol>	2
<p style="text-align: center;"><b>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</b></p> <p>Mustaqil ta'limning turli xil shakllari mavjud bo'lib, bunda asosiy e'tibor talabani berilgan mavzular (amaliy masalalar, topshiriqlar va keys-stadilar)ni mustaqil ravishda, ya'ni auditoriyadan tashqarida bajarishi, o'qib o'rganishi va shu yo'nalish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishiga qaratiladi. Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;</li> <li>- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;</li> <li>- mustaqil ishlar, keys-stadilar bilan ishlash;</li> <li>- maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;</li> <li>- fanga oid statistik ma'lumotlarni o'rganish, ularni tahlil qilish;</li> <li>- talabani o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularni chuqur o'rganish;</li> <li>- faol va muammoli o'qitish usulidan foydalaniladigan o'quv</li> </ul>		

	mashg'ulotlari
<b>3</b>	<p style="text-align: center;"><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p><b>Talaba bilishi kerak:</b></p> <p>Magistrant-talaba "Inson falsafasi" kursi bo'yicha:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– "Inson falsafasi" fani ijtimoiy fanlar tizimida muvofiqlashtiruvchi fan ekanligi;</li> <li>– Falsafiy antropologiya falsafaning zamonaviy sohalaridan biri;</li> <li>– Sharq va g'arb falsafasida inson mohiyati tahlili;</li> <li>– Xristian va islom falsafasida inson hayoti va mazmuni;</li> <li>– Hozirgi zamon G'arb falsafiy antropologiyasi inson haqida;</li> <li>– Insonga maxsus ilmiy va falsafiy yondashuvlarni o'ziga xosligi;</li> <li>– Antroposotsiogenez nazariyasi, uning falsafiy va tabiiy-ilmiy zaminlar va boshqalar haqida yetarlicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi;</li> <li>– Insondagi tabiiylik bilan ijtimoiylik orasidagi aloqadorlik va insoniyatning taqdiri eng avvalo, global muammolarni bartaraf etish bilan bog'liqligiga oid masalalarni mustaqil tahlil qila olishi;</li> <li>– Inson taraqqiyoti, inson kapitadi, baxt indeksi va barqaror rivojlanish maqsadlari masadadarini tahlil qilishi;</li> <li>– O'zining ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik faoliyatida "Inson falsafasi" fani bo'yicha olgan bilimlarini qo'llay olishi;</li> <li>– Falsafada inson muammosiga oid tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlardan foydalanish;</li> <li>– Falsafada inson muammosining an'anaviy va zamonaviy jihatlarini yosh avlod ongiga singdirishning shakl va usullaridan foydalana olish ko'nikmasini egallashi lozim.</li> </ul>
<b>4</b>	<p style="text-align: center;"><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– ma'ruzalar;</li> <li>– interfaol keys-stadilar;</li> <li>– seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>– guruhlarda ishlash;</li> <li>– taqdimotlarni qilish;</li> <li>– individual loyihalar;</li> <li>– jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
<b>5</b>	<p style="text-align: center;"><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p> <p><b>Joriy nazorat.</b> Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (juftlik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.</p> <p>Jami seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.</p> <p><b>Oraliq nazoratlar.</b> Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.</p>

Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.

#### **Yakuniy nazorat**

Yakuniy nazorat yozma yoki test shaklida o'tkaziladi. Talabaniq yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.

6

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Ilin V. Filosofskaya antropologiya. –M.: Izdatelstvo: Knijnyy dom "Universitet", 2009.
2. Remezova I.I. Sovremennaya filosofskaya antropologiya. –M.: Izdatelstvo: INION RAN, 2005 - 89 s.
3. Filosofskaya antropologiya: Aktualnye ponyatiya: ucheb. Posobie / Ye.S.Cherepanova i dr.; [pod общ. red. Ye.S.Cherepanovoy]. – Yekaterinburg: Izd-vo Ural. un-ta, 2017. – 324 s.
4. Choriev A. Inson falsafasi: Inson to'g'risidagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti. 1-kitob. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashri. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007.
5. Choriev A., Choriev S. Renessans davri. Yevropa falsafasi. / Anvar Choriev, Sanjar Choriev – Toshkent: «Tafakkur qanoti», 2015. – 112 b.
6. Shermuxamedov S. Inson falsafasi. -T.: Fan, 2009.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
2. Alekseev V.P. Stanovlenie chelovechestva. -M., Politizdat, 1984.
3. Allayorova S.N. Belgi va mazmun dialektikasi. – T.: Noshir, 2013.
4. Antropologiya. Uchebnik dlya vuzov V.M.Xaritonov, A.P.Ojigova, Ye.Z.Godina: - Vlados, 2004. 272 c.
5. Barulin S. Sotsialnaya filosofiya. - M., 1997.
6. Berdyaev N.A. Samopoznanie. - L.,1991.
7. Borodoy Yu.M. Ot realnosti k fantazii. -M.: 1995
8. G'arb falsafasi. Professor Q.Nazarov tahriri ostida. -T.: Sharq, 2004.
9. Gegel G. Fenomenologiya duxa. –M., 1989.
10. Grigoryan B.T. Filosofskaya antropologiya –M., 1982.
11. Groff S. Za predelami mozga –M.,1992.
12. Gumilyov L.N. Etnogenez i biosfera zemli. – L., 1990.
13. Davronov Z. Barkamollikka da'vat maktublari. – T.: Iqtisod-moliya, 2011.
14. Delez J. Logika smsla. –M.: 1995.
15. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. Professor Q.Nazarov tahriri ostida. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2004.
16. Kamyu A. Begona. Roman. – T.: Yangi asr avlodi, 2012.
17. Kamyu A. Buntuyushiy chelovek. - M.: 1992.
18. Kant I. Antropologiya: soch. T. 6. -M., 1966.
19. Qahhorova Sh.B. Global ma'naviyat – globallashuvning g'oyaviy asosi. – T.: Tafakkur, 2009.



	<p>20. Qurbonova L.A. Antropologiya va elitologiya o‘zaro munosabatlarning falsafiy – metodologik xususiyatlari //Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2018.</p> <p>21. Malenkov A.G. Stanovlenie Cheloveka. –M.: Madjerik, 2008.</p> <p>22. Mahmudov T., Mahmudova D. Har maktubda umr lahzasi. – T.: Nihol, 2013.</p> <p>23. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. -T., 2004.</p> <p>24. Rassel B. Mudrost Zapada. M. 1998. 66.</p> <p>25. Rodjers K. Vzgljad na psixoterapiyu. Stanovlenie cheloveka. M.: "Progress", 1994.</p> <p>26. Ruzmatova G. Freydizm falsafasida inson masalasi. –Toshkent, 2009</p> <p>27. Sartr J.P. Filosofskie pesy. - M.: 1997. 67.</p> <p>28. Tegako L., Kmetinskiy Ye. Antropologiya: ucheb. posobie. — 2-ye izd., ispr. — M. : Novoe znanie. 2008.</p> <p>29. Xaydegger M. Btie i vremya. – M., 1997.</p> <p>30. Xudayberganov R.X. O‘lim va barhayotlik to‘g‘risida ilmiy va diniy g‘oyalarning falsafiy tahlili // Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. –Toshkent, 2010.</p> <p>31. Sharq falsafasi. Mualliflar jamoasi. –T.: 2006.</p> <p>32. Erkaev A. Ma’naviyat va taraqqiyot. –T.: Ma’naviyat, 2009.</p> <p>33. Yung K. Psixologicheskie tpy. - M.: 1999. 69. Fromm E. Imet ili byt. - M.: 1990</p> <p>34. Yaspers K. Vsemirnaya istoriya filosofii. - M.: 1996. 68</p> <p style="text-align: center;"><b>Elektron ta’lim resurslari:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <a href="http://anthropology.ru">http://anthropology.ru</a></li> <li>2. <a href="http://www.Ziyonet.uz">www. Ziyonet. uz</a></li> <li>3. <a href="http://www.edu.uz">www. edu. uz</a></li> <li>4. <a href="http://www.ma'naviyat.uz">www. ma'naviyat. uz</a></li> <li>5. <a href="http://www.bilim.uz">www.bilim.uz</a>.</li> </ol>
<b>7</b>	<b>Jizzax davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan</b>
<b>8</b>	<b>Fan/modul uchun mas`ul:</b> Б.Очилова ф.ф.д.проф.
<b>9</b>	<b>Taqrizchilar:</b> <b>А.Сайидқосимов – Jizzax DPU профессори</b> <b>Б.Тошбоев - Jizzax DPU доценти</b>





